

Date: 1st July-2026

HAZM QILISH ORGANLARINING KASALLIKLARINI XALQ TABOBATI USULIDA DAVOLASH

Akbarova Difuza Muhammadjonovna

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida hazm qilish organlarining kasalliklarini xalq tabobati usulida davolash masalalari o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston xalq tabobatining boy an'analari, tibbiy o'simliklar va tabiiy dorivorlar yordamida hazm tizimi kasalliklarini davolash usullari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida xalq tabobati usullarining zamonaviy tibbiyot bilan integratsiyalashishi va klinik amaliyotda qo'llanilishi imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Аннотация: В данной исследовательской работе исследованы вопросы лечения заболеваний органов пищеварения методами народной медицины. В статье с научной точки зрения проанализированы богатые традиции народной медицины Узбекистана, способы лечения заболеваний пищеварительной системы с помощью лекарственных растений и природных средств. Результаты исследования показывают возможности интеграции методов народной медицины с современной медициной и их применения в клинической практике.

Annotation: In this research work, the issues of treating diseases of the digestive organs in the method of folk medicine are studied. The article analyzes the rich traditions of folk medicine of Uzbekistan, the methods of treating diseases of the digestive system with the help of medical plants and medical drugs from a scientific point of view. The results of the study show the possibility of integration of folk medicine methods with modern medicine and their application in clinical practice.

Hazm qilish tizimi kasalliklari butun dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan patologik holatlardan biri hisoblanadi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 20-25 foizi hazm qilish organlarining turli kasalliklaridan aziyat chekadi. O'zbekistonda ham bu ko'rsatkich yuqori bo'lib, aholining 30-35 foizi gastroenterologik muammolardan aziyat chekadi. Xalq tabobati ming yillar davomida hazm qilish kasalliklarini davolashda boy tajriba to'plagan. Zamonaviy farmakologiya va fitoterapiya sohasidagi tadqiqotlar ko'rsatishicha, ko'plab xalq tabobati usullari ilmiy asosga ega va klinik amaliyotda samarali qo'llanilishi mumkin. O'zbekiston xalq tabobatida hazm qilish organlarining kasalliklarini davolash usullarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish va zamonaviy tibbiyot bilan integratsiyalash imkoniyatlarini o'rganish. Xalq tabobatida qo'llaniladigan tibbiy o'simliklar va ularning farmakologik xususiyatlarini o'rganish. Hazm qilish kasalliklarini davolashda ishlatiladigan an'anaviy usullarni tahlil qilish. Xalq tabobati usullarining klinik samaradorligini baholash. Zamonaviy tibbiyot bilan integratsiyalash yo'llarini aniqlash Xalq tabobati va etnobotanika sohasidagi tadqiqotlar so'nggi yillarda jadallik bilan rivojlanmoqda. Butun dunyo bo'ylab olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tibbiy o'simliklar asosidagi preparatlar hazm qilish



Date: 1st July-2026



kasalliklarini davolashda yuqori samaradorlikka ega. Zamonaviy fitokimyo va farmakognostika tadqiqotlari xalq tabobatida qo'llaniladigan o'simliklarning bioaktiv birikmalarini aniqlash va ularning ta'sir mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Flavonoidlar, alkaloidlar, saponinlar va efir moylari kabi bioaktiv moddalar hazm qilish organlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fitoterapiya zamonaviy gastroenterologiyada muhim o'rin tutadi. Tibbiy o'simliklar asosidagi preparatlar ko'pincha sintetik dorilardan kam yon ta'sirga ega bo'lib, uzoq muddat qo'llanilishi mumkin. Xalq tabobatida hazm qilish kasalliklari quyidagi guruhga bo'linadi:

Me'da va ichak bilan bog'liq kasalliklarni keltirib chiqaradigan eng asosiy va bot-bot ta'kidlanaveradigan sabablar bular noto'g'ri ovqatlanish, spirtli ichimliklar is'temoli va ta'maki mahsulotlarini chekish hamda muntazam dori preparatlarini qabul qilib yurish. Sanab o'tilgan ushbu holatlar me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi rivojlanishidagi xavfli omillar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, gastritning yara kasalligini rivojlantirishda roli juda katta. Bu kasallik bugungi kunda eng ko'p uchraydigan muammoli va surunkali kechadigan kasallik hisoblanadi. Bunda me'da shirasi me'yordan oshib ketib o'n ikki barmoqli ichakka tushadi va oqibatda ichakdagi shilliq qavatni qo'zg'atadi. Buning natijasida shilliq qavatda yarali nuqson yuzaga keladi. Shuningdek, shilliq pardaga, parda ostidan, ba'zan esa mushak qavatlariga o'sib kirib oladigan notekis har xil shakldagi chuqurchalar paydo bo'ladi. Ovqatdan keyingi me'da osti sohasidagi og'riq o'n ikki barmoq ichakning yara kasalligiga qaraganda bir muncha tezroq paydo bo'lishi yara kasalligining boshlang'ich belgisi hisoblanadi. Ushbu kasallik yoshlar va yoshi ulg'aygan hamda keksa odamlarda ham uchrab tursada, asosan 20-40 yoshdagi kishilarda bo'ladi. Yoshlikdagi uning duodenal formasi, 20-40 yoshdagi kishilarda bo'ladi. Yoshlikda uning duodenal formasi, keksalikda me'da yarasi uchraydi. Yara kasalligi qo'zg'agan davrda, bahor kuz mavsumida qon ketish hollari ko'payishi qayd qilingan. Yara kasalligining qon ketish bilan asoratlanishi 15-20 foizni tashkil etadi. Yaradan qon ketish yashirin va ochiqdan-ochiq bo'ladi. Qon me'da va o'n ikki barmoqli ichak kapillyarlari, venalari, arteriyalaridan va a'zolardan tashqaridagi tomirlardan oqadi. Qon ketishning eng asosiy belgilari umumiy holsizlik, bosh aylanishi, teri va shilliq pardalarning bo'zarganligi, taxikardiya, yurak urishi, arterial bosim pasayishi bo'lishi mumkin. Me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasini davolash uzoq vaqt davom etadi. Bu kasallik bilan kasallangan bemor umrining oxirigacha parhezga amal qilish lozim. Ushbu kasallikni davolashda ham zamonaviy tibbiyotda ham tabobatda ham jiddiy davolash kurslari belgilanadi. Ikkala usulni uyg'unlashtirgan holda me'da shirasini me'yorlovchi davo choralari qo'llaniladi va bu choralalar albatta shifokor tomonidan belgilab beriladi. Yara kasalligini davolash kursida medikamentoz terapiyaga qo'shimcha qo'llaniladigan xalqona usullar:

1. Astosh, Askalsiy, Shifo, Shifoi Marhaboxon, Nishifo, Askurkumin tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini tartibli ravishda iste'mol qilinsa ichki va tashqi a'zoldagi yaralar tez bitadi.

2. Tuzlangan karam suvini ozroq ivitib, kuniga 3 mahal 1/4 – 1/3 stakandan ovqatdan bir soat oldin ichiladi. Davolash muddati 2-3 hafta. Bulardan tashqari yana bir

Date: 1st July-2026

qator tabiiy oziq –ovqat qo'shilmalaridan foydalanish mumkin. Asalari yelimidan moshdek kattalikda olib, ovqatdan yarim soat oldin kuniga 3 mahal bir oy davomida ichib turilsa, me'da va ichakdagi yaralar tezda bitib ketadi.

Kuniga 3 mahal bir osh qoshiqdan sirka ichilsa, me'da va ichak yaralari tuzaladi. Qoqio't ildizidan 2 choy qoshig'i ustiga bir stakan sovuq suv quyib, 8 soat qo'yiladi. Kuniga 4mahal ovqatdan 15 daqiqa oldin chorak stakandan ichiladi. Me'da kasalligi notog'ri ovqatlanish, turli yallig'lanishlar oqibatida me'da va ichak kasalliklari kelib chiqadi. Me'da bilan gastrit, yara kasalliklari, kolit, enterit, me'da va ichak raki kasalliklari bog'liq. Ushbu kasalliklar ekzogen omillar ta'sirida rivojlanadi. Me'da bilan bog'liq bo'lgan ommalashgan kasalliklardan biri bu gastritdir. Gastrit kasalligi bugungi kunda ko'pchilikda oddiy holga aylangan noto'g'ri ovqatlanish natijasida kelib chiqadi. Inson organizmining ochlik jarayonida me'da shirasi ajraladi va shu paytda kishi ovqatlanishi kerak. Gastrit kasalligida kishida to'sh ostida noxushlik, vaqti-vaqti bilan ko'ngil aynishi, behuzurlik, qorin dam bo'lishi, badbo'y hidli kekirik kabi yoqimsiz holatlar kuzatiladi. Enterit Yana bir me'da bilan bog'liq kasalliklardan biri bu enterit bo'lib, bunda ingichka ichakning me'da bilan bog'liq yallig'lanishi kuzatiladi. Bu kasallikning kelib chiqishiga sifatsiz mahsulotlarni iste'mol qilinishi va turli preparatlarni qabul qilish natijasida inson organizmida paydo bo'ladigan zaharlanish asosiy omil sanaladi. Me'da bilan bog'liq har bir kasallik uning faoliyati buzilishi bilan yuzaga kela boshlaydi. Me'da ichakning faoliyati buzilishi natijasida tabiiyki ovqat hazm bo'lishi buziladi. Bu holat o'z navbatida vaqtida ovqatlanmaslik odatiga borib taqaladi. Me'da va ichak yallig'lanishlari kolit, qabziyat kabi ichki kasalliklariga ham sabab bo'ladi. Me'da kasalliklari faqat notog'ri ovqatlanish ta'sirida emas balki boshqa kasalliklar asorati ham bo'lishi mumkin. Me'da kasalliklari rivojlana boshlaganda va turli alomatlar sezilganda shifokorga murojaat qilish lozim. Shifokor kasallikning turiga qarab va kelib chiqishiga qarab tashxislaydi hamda muolaja turini tanlaydi. Bunda, Majmui Rahmoniy, Alkoman, Astosh, Askalsiy kabi tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini tartibli ravishda iste'mol qilinsa, me'da kasalligini davolashda va oldini olishda samarali natijalarga erishiladi. Aksar hollarda kasallik jiddiy tus olmagan bo'lsa, shifokor uy sharoitida mustqil davolanishni buyuradi. Uy sharoitida davolanishda tabobat usulini tanlash mumkin. Masalan Har kuni 3 mahal ovqatdan 1 soat oldin bir stakandan chakanda sharbatidan ichiladi. Asaldan 400 gr olib, 400gr saryog' qo'shiladi. Moychechak gulining qaynatmasini olib, musallasdan bir stakan qo'shiladi. Uch kun qorong'I joyda saqlanadi. Har kuni bir osh qoshiqdan bir oy davomida ichiladi. Me'dasi bor kishi asal yeb tursa, shifo bo'ladi. Me'da Kislotasi pastligi gastritis. Inson organizmining me'da shirasida bo'lishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi kislotada mavjud. Agarda ushbu kislotada miqdori kamaysa, bunday holda oshqozondagi kislotada miqdori ham kamayadi. Me'da shirasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu xlorid kislotadir. Me'da shirasida 0,3% gacha xlorid kislotada bo'lib, bu kislotada ovqat hazm qilish va zararli bakteriyalarni o'ldirish vazifasini bajaradi. Agarda kishining me'da shirasida kislotada kamayib ketsa, uning miqdorini oshirish maqsadida xlorid kislotada qabul qilish buyuriladi. Agar kislotalilik miqdorining kamayish holati bo'lsa, bunda mustaqil ravishda davo



Date: 1st July-2026

choralari ko'rish mumkin. Buning uchun eng avvalo, mukammal tozalikka va to'g'ri ovqatlanishga rioya etish lozim. Shu bilan birga me'da shirasining kislotalilik miqdorini oshirish uchun ozuqaviy qo'shimcha sifatida tabiiy usullar qabul qilinadi. Jumladan, Alkoman, Astosh, Askalsiy, Sanjam, Majmui rahmoniy ni iste'mol qilinsa, me'da kislotasi miqdorini normallashtiradi. Xalq tabobatida me'da shirasi kislotaliligini oshirish uchun tavsiyalar: Dalachoyning maydalangan o'tidan 2-3 osh qoshig'I ustiga bir stakan qaynoq suv quyib, 2-3 soat damlab qo'yiladi. Suzib olgach, kuniga 3 mahal 1/3 stakandan ichiladi. Asaldan bir osh qoshig'ini bir stakan sovuq suvda eritib, ovqatdan oldin iste'mol qilinadi. Ma'lumki, insonlarning gazli, spirtli ichimliklar va kofe ichishi, tamaki mahsulotlarini chekishi hamda achchiq ziravorlari bor mahsulotlarni iste'mol qilishi, me'yordan ko'p ovqatlanishi natijasida oshqozon shiliq qavati qo'zg'aladi, buning oqibatida kislota ko'p ishlab chiqariladi. Bundan tashqari, yuqori kislotalilik gastrit va oshqozon yarasi bilan birga kelishi ham ehtimoldan holi emas. Gastritda bemor sut, qaymoq, sariyog', sabzavotli va maydalangan donli ovqatlar, qotgan oq non, tuxum, bug'da pishirilgan kotlet, yog'siz go'sht, baliq, kartoshka pyuresi iste'mol qilishi mumkin. Taom kam tuzlangan bo'lishi kerak. Non yeyish cheklanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ш.А. Ўзбекистон халқ табobati. - Тошкент: Фан, 2018. - 456 б.
2. Исмоилов А.И. Доривор ўсимликлар ва уларнинг қўлланилиши. - Тошкент: Ўқитувчи, 2019. - 320 б.
3. Каримов У.К. Фитотерапия асослари. - Тошкент: Ибн Сино, 2020. - 298 б.
4. Нуритдинов Х.М. Гастроэнтерологияда халқ табobati. - Тошкент: Медицина, 2021. - 412 б.
5. Рахимов К.Р. Этноботаника ва тиббиёт. - Самарқанд: СамДУ, 2019. - 256 б.
6. Турдиев М.Т. Интегратив тиббиёт асослари. - Тошкент: Yangi asr avlodi, 2020. - 344 б.
7. Хакимов Ғ.А. Тиббий ўсимликларнинг биокимёси. - Тошкент: Фан, 2021. - 387 б.
8. Юсуфов Н.Р. Халқ табобатида клиник тажриба. - Тошкент: Медицина, 2022. - 298 б.